

Journal of
**Natural
science**

**No5
2021**

<http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p>Бош муҳаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова, PhD, доц.</p> <p>Масъул котиб- Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none">1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.2. Шылова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор6. Абдурахмонов Э – СамДУ к.ф.д., профессор7. Сманова З.А,-ЎзМУ к.ф.д., профессор8. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д,доц9. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.10. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф.11. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф12. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц13. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.14. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц15. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.16. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)17. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц18. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)19. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц20. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц
<p>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (ҳар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

OYLARNING NOMLANISH XUSUSIYATLARI

*Kamolov M.N. – Jizzax Davlat Pedagogika Instituti Tabiiy fanlar fakulteti
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasida o‘qituvchi*

*Mamatova Sh.G’.- Jizzax Davlat Pedagogika Instituti Tabiiy fanlar fakulteti
Geografiya o‘qitish metodikasi yo‘nalishi talabasi*

Annatsiya. Odamlar quyoshning chiqishi, ufqdan qanchalik ko‘tarilishini va fasllarining almashinishini kuzatib yil hosil bo‘lishini bilishgan. Ushbu maqolada yil kalandari va oylarning nomlanishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan

Kalit so‘zlar. Kalendar, aprel, oy, yil, Oktavian Avgust, Yuliy Sezar, rimliklar, taqvim, kun, fasl

Аннотация. Люди знали, что год формируется, наблюдая за восходом солнца, за тем, как высоко оно поднимается над горизонтом, и за сменой времен года. В этой статье представлена информация о календаре года и названиях месяцев

Ключевые слова. Календарь, апрель, месяц, год, Октавиан Август, Юлий Цезарь, римляне, календарь, день, сезон

Annotation. People knew that the year would be formed by observing the sunrise, how much it would rise from the horizon and the alternation of seasons. This article contains information about the Year calendar and the name of the months

Keywords. Calendar, April, month, year, Octavian August, Julius Caesar, Romans, calendar, day, seasons.

Tashqi olam to‘g‘risidagi bilimlar ko‘paygan sari va turli davrlarda xalq xo‘jaligi ehtiyojlari bilan bog‘liq ravishda kalendarlar takomillashib bordi. Kalendarning paydo bo‘lishini ibtidoiy odamning turmush tarzi bilan bog‘lash mumkin. Bu davrda ovchilik va termachilik odam faoliyatining asosini tashkil qilib dehqonchilik va chorvachilikka o‘tilishiga olib keldi. Keyingi ikki yuz yillikda kalendarlarning takomillashtirishga Yevropadagi sanoat to‘ntarishi, XX asrdagi fan va texnika inqilobi sabab bo‘lib kalendarning takomillashtirish muammosini dolzarb qilib qo‘ydi. Qadimda bir yilni aniqlash uchun qamariy kalandari, quyosh kalandari rimliklar kalandari, arablar, Yuliy (shamsiy) kalandari, Umar Hayyom kalandari va boshqa kalendarlar o‘z hududi bo‘yicha amal qilib kelgan.

Qadimgi Rimda Oy kalandari (qamariy kalendar)ga amal qilingan; bu kalendar bo‘yicha bir yil 10 oydan – 304 kundan iborat bo‘lgan. Avvaliga oylarning nomi bo‘lmagan, ular tartib raqami (1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10,) bilan yuritilgan.

Rimliklarning 304 kunlik yili na Oy yili hisobiga va na Quyosh yili hisobiga to‘g‘ri kelar edi. Shuni nazarda tutib, eramizdan avvalgi VII asrda islohot o‘tkazilib Oy kalandari yiliga yana ikki oy: o‘n birinchi – yanvar va o‘n ikkinchi – fevral oylari

qo‘shiladi. Shunday qilib, qadimgi rimliklarning 10 oylik kalendari 12 oylik kalendarga aylandi. Bu kalendar hozir amal qilib kelinayotgan kalendarning asosini tashkil etdi.

Eramizdan avvalgi VII asrda o‘tkazilgan islohotdan oldingi qadimgi rimliklar kalendaridagi oylar nomi 12 oylik kalendarida ham saqlanib qolgan. 10 oylik kalendarida yangi yil bahorda boshlangan. Ko‘pchilik kalendarlarda, shu jumladan, qadimgi rimliklar kalendarida yilning birinchi oyi mart bo‘lgan. Bu oy urush xudosi, dehqonlar va chorvadorlar homiysi Mars sharfiga mart deb atalgan (mart-martus so‘zidan olingan).

Maqbul kalendaridan biri hisoblangan Umar Hayyom kalendarida ham yil mart oyidan boshlangan. XV asrgacha Rossiyada ham yangi yil mart oyidan boshlangan. Hozirgi kalendarida mart yilning uchinchi oyidir.

Kalendarimizdagi to‘rtinchi oyning nomi aprel (aprilis) lontanicha “aprife” degan so‘zdan kelib chiqqan. Aprife – in‘omlarini namoyon qiluvchi degan manoni bildiradi. Boshqa manbalarda aprel so‘zi mabuda Afrodit – go‘zallik, muhabbat, shuningdek, hosildorlik tangrisi nomidan kelib chiqqan deyiladi.

Aprel – bahor oyi, butun borliq uyg‘onib kishilarga orom bag‘ishlaydigan oy; bahorda, hatto keksalar ham o‘zlarini go‘yo yosharayotgandek, ancha bardam his qiladilar. Aprelda kelgusi hosil uchun taraddut boshlanadi.

Birinchi aprel – hushchaqchaqlik kuni. Hushchaqchaqlikni hazil – mutoyibasiz, kulgusiz tasavvur qilish qiyin. Ko‘ngil ochish, kulish maqsadida Pyotr I zamonidayoq 1 aprel bir-birovini hazillashib aldash odat tusiga kirgan.

Kalendarimizdagi beshinchi oyning nomi (mayus) mabuda Maya ismidan olingan; qadimgi rimliklar etiqodi bo‘yicha Maya Merkuriyning onasi-Yer tangrisidir. Maya – go‘zallik, shod-hurramlik oyi hisoblanadi.

Kalendarimizdagi oltinchi oyning nomi iyun (yunius) qadimgi rimliklar etiqodiga ko‘ra, Yupiter xotini – mabuda yunona sharafiga atalgan. Afsonalarga ko‘ra, Yunona Oy xudosi ayollar homiysi bo‘lib, er – xotinga qo‘sha qarish, uvali-juvali bo‘lishni ravo ko‘rarkan.

Kalendarimizdagi yettinchi oyning nomi Rim davlat arbobi va lashkarboshisi Yuliy Sezar (eramizgacha 100-44 y) sharafiga iyul deb atalgan. Eramizdan oldingi 46 yilda Yuliy Sezar tashabbusi bilan 12 oylik shamsiy kalendari isloh etilgan va Yuliy kalendari deb yuritiladigan bo‘lgan.

Kalendarimizdagi sakkizinchi oyning nomi Rim imperatori Oktavian Avgust sharafiga (eramizning II asri) avgust deb atalgan. Iperator Avgust - Yuliy Sezarning nabira jiyani – vorisidir. Oktavian Avgust vaqt (kalendar) hisobidan to‘planib qolgan farqni isloh qilib tugatgan.

Kalendarimizdagi to‘qqizinchi oy – sentyabrning nomi (qadimgi rimliklarning o‘n oylik kalendarida bu yettinchi oy hisoblanadi) lotincha September (septem-yetti degan) so‘zidan olingan.

Kalendarimizdagi o‘ninchi oy (qadimgi rimliklar 10 oylik kalendarida sakkizinchi oy) lotincha oktober (okto-sakkiz degani) so‘zidan olib, oktyabr deb atalgan.

Kalendarimizdagi o‘n birinchi oy-noyabrning nomi lotincha November so‘zidan olingan. Qadimgi rimliklar 10 oylik kalendarida bu to‘qqizinchi oydir (lotincha novem so‘zi to‘qqiz degan manoni bildiradi).

Kalendarimizdagi o‘n ikkinchi oyning nomi-dekabr, lotincha dotseMBER so‘zidan olingan, chunki bu oy qadimgi rimliklar kalendarida o‘ninchi oy bo‘lib hisoblanadi (dekem-o‘n degan manoni bildiradi).

Yuliy Sezar tomonidan eramizdan oldingi 46 yilda yaratilgan 12 oylik shamsiy-Yuliy kalendarimizdagi o‘n birinchi oy ikki yuzli xudaon Yanus sharafiga yanuaris (yanvar) deb atalgan. Rimliklar etiqodicha, ikki yuzli xudo Yanus har bir narsaning boshi va oxirining homiysi bo‘lgan emish.

Hozirgi kalendarida yanvar yilning boshi, birinchi oyi hisoblanadi. Rimliklar kalendarining oxirgi-o‘n ikkinchi oyi fevraldir. Fevral lotincha “februum” so‘zidan olingan. Rimliklar bu oxirgi oyiga o‘liklar tangrisi February nomiga bag‘ishlab “februarius” (fevral) deb nom bergan. Lotincha “februarius” so‘zi-tozalanish, poklanish degan manoni ham bildiradi. Fevral hozirgi kalendarining ikkinchi oyi hisoblanadi.

Islom diniga mansub bazi xalqlarda insonlarning yoshini hozirgi kungacha qamariy (10 oylik) kalendarida hisoblab, 60 yoshga to‘lgan insonni (12 oylik kalendarida), qamariy kalendar hisobiga ko‘ra 70 yoshga kirgan deb hisoblaydilar. Hozirgi kalendar bo‘yicha 85 yoshga kirgan qariyalarni esa, qamariy kalendar hisobida 102 yoshga kirgan deb ham hisoblab, inson yoshini ulug‘lashga harakat qiladilar. Shunday qilib, kalendar asosida kundalik ish faoliyatini rejalashtirib oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жиззах сув омбори ва ундан оқилона фойдаланишнинг географик жиҳатлари I Abdullayev, J Xolmirzayev - Архив Научных Публикаций JSPI, 2020
2. Gapparov, A. (2020). Жиззах вилояти тоғли туманларда сув хавзаларининг аҳоли жойлашув тизимларига таъсири. Архив Научных Публикаций JSPI.
3. Ҳақимов, Қ. М., & Адилова, О. А. (2015). Жиззах вилояти географияси. Т." Фан ва технологиялар.
4. G'apparov, A., Haydarova, S., & Xoldorova, G. Тоғ'ли hududlarda aholi punktlari zichligining ortishi va uning oqibatlari. Ўзбекистон География жамияти Ахборотномаси.

5. Xolmirzayev, J., & Qosimov, N. (2021). Jizzax viloyati ichki suvglariga antropogen omillarning ta'siri. Журнал естественных наук, 1(2).